



## TA'LIMNI RAQAMLASHTIRISH JARAYONLARIDA TA'LIM SUBYEKTLARIGA QO'YILADIGON TALABLAR TAXLILI.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.6470998>

**Jahongir Alinazarov Zuhridin o'g'li**

*Toshkent Davlat Yuridik*

*Universiteti magistratura talabasi.*

**Annotatsiya:** *Maqolada mamlakatimizda umumiy o'rta ta'lim va oliy ta'lim tizimida raqamlashtirish va raqamli dunyoda o'rganishning ahamiyati, hozirgi kunda olib borilayotgan ishlar va imkoniyatlar tahlil qilingan. raqamli dunyoda raqamlashtirish, raqamli texnologiyalarni ishlab chiqish, raqamli iqtisodiyot sohasida yangi loyihalarni ko'rib chiqish va raqamli ta'limni rivojlantirish dasturlari amalga oshirish chora tadbirlari, bu bo'yicha qonunchilik asoslari va uning mohiyati yoritib o'tilgan.*

*Ta'lim olish huquqi, uning kafolatlari yoritib o'tilgan. Ta'lim subyektlariga qo'yilgan talablar, vazifa va topshiriqlar atroflicha tahlil qilingan. Talim muasassalarini moddiy texnik bazasi, axborot kommunikatsiya vositalari va internet tarmoqlari bilan taminlashning huquqiy asosi va briktirilgan tashkilot ko'rsatib o'tilgan prezident farmon va konsepsiyalari chuqur taxlil qilingan.*

**Kalit so'zlar:** *Ta'lim olish huquqi, raqamli texnologiya, raqamlashtirish, «EDU LINK» axborot tizimi, HEMIS dasturi.*

Hozirgi kunda davlatimiz rahbari tomonidan jamiyatda faoliyat yuritayotgan barcha sohalarni rivojlantirish, halqaro talab doirasida faoliyat yuritishi uchun axborot kommunikatsiya tarmoqlari bilan uzviy bog'lash va bosqichma-bosqich raqamlashtirishga kata e'tibor qaratilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktyabdagi PF 6079 sonli “Raqamli O'zbekiston 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora tadbirlari to'g'risida”gi farmonida raqamli dunyoda raqamlashtirish, raqamli texnologiyalarni ishlab chiqish, raqamli iqtisodiyot sohasida yangi loyihalarni ko'rib chiqish va raqamli ta'limni rivojlantirish dasturlari amalga oshirilmoqda. Ushbu farmonda ta'lim sohasida raqamli ko'nikmalarni oshirish maqsadida quyidagi tadbirlar amalga oshiriladi:

- Ta'lim pog'onasining boshlang'ich bosqichida o'quvchilarga raqamli texnologiyalarni taqdim etish orqali raqamli ko'nikmalarni o'zlashtirish uchun imkoniyatlar yaratish, tahliliy va tanqidiy fikrlashni rivojlantirish, kelajakda zarur bo'ladigan keng ko'lamlil raqamli transformatsiya sharoitida yoshlarga bilim va ko'nikmalar berish;



- yagona masofaviy ta'lim platformasini kelajakda ta'limning barcha yo'nalishlarida tatbiq etish maqsadida yaratish va amalga oshirish;
- o'quvchilar uchun raqamli texnologiyalardan foydalanishning umumiy darajasini oshirish maqsadida umumta'lim maktablarining asosiy o'quv dasturlariga doimiy o'zgartirishlar kiritish;
- texnologik kasblar va innovatsion faoliyat sohasida o'qishni tashkil etishga qaratilgan yuqori samarali xalqaro amaliyotni ta'lim tizimiga joriy etish;
- axborot-kommunikatsiya texnologiyalari bilan bog'liq yo'nalishda kadrlar tayyorlovchi oliy ta'lim muassasalari bitiruvchilari sonini, axborot texnologiyalar sohasida o'rtacha darajada kompetensiyaga ega bo'lgan o'rta maxsus kasb-hunar ta'limi muassasalari bitiruvchilarini oshirish;
- axborot texnologiyalar sohasidagi tashkilotlarining o'quv jarayonlarga qatnashishini rag'batlantirish orqali umumta'lim maktablarda informatika fanini o'qitish metodlarini takomillashtirish;
- oliy ta'lim muassasalarida tegishli sohalarda "Buyumlar interneti", robototexnika, sun'iy intellekt texnologiyalarini qo'llash va o'rganish bo'yicha laboratoriyalar, shuningdek, qog'oz shaklidagi materiallarni raqamlashtirish formatlaridan foydalanish bo'yicha davlat yagona talabini ishlab chiqish va qo'llab-quvvatlashni ta'minlash orqali ta'limda o'quv materiallarini raqamlashtirish;
- raqamli texnologiyalar sohasida ilmiy-tadqiqot ishlarini rivojlantirish va rag'batlantirish, ularning tashkiliy mexanizmlarini takomillashtirish;
- yangi qidiruv tizimlarini yaratish yo'nalishini ishlab chiqish va aniqlash, shu jumladan audio va video materiallarni izlash va aniqlash uchun yechimlar, axborotni qidirish va olishda semantikadan foydalanish, mashinaviy tarjima tizimidagi yangi texnologiyalar, shuningdek, mashinaviy o'qitishning yangi algoritmlari va texnologiyalarini rivojlantirish;
- maktabgacha, o'rta va oliy ta'lim tizimi uchun elektron ta'lim resurslarini yanada takomillashtirish, shuningdek, ichki va jahon ta'lim resurslaridan foydalanishni ta'minlash;
- inson kapitalini rivojlantirish, shu jumladan, ixtisoslashgan ta'limni rivojlantirish hamda IT-sohasidagi kasblarni ommalashtirish, IT-korxonalar uchun institutsional sharoitlarni yaxshilash va ma'muriy to'siqlarni kamaytirish; maktab va maktabgacha ta'lim tizimiga raqamli transformatsiya va yangi texnologiyalar bo'yicha innovatsion o'quv dasturlarini joriy etish kabi masalalar atroflicha ko'rib chiqilishi belgilangan. Bundan tashqari prezidentimiz tomonidan ta'lim tizimi, jumladan Xalq Ta'limi va Oliy Ta'lim tizimini rivojlantirish va bugungi ta'lim standartlariga mos holatda takomillashtirish maqsadida bir qancha konsepsiya va qarorlar ishlab chiqildi. Bunga farmonlarni misol qilib aytishimiz.



• O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta‘limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi Xalq Ta‘limini tubdan islox qilish uchun poydevor bolmoqda. Konsepsiya quyidagi maqsadlarni amalga oshirishga qaratilgan.

• O‘zbekiston Respublikasida umumiy o‘rta va maktabdan tashqari ta‘limni tizimli isloh qilishning ustuvor yo‘nalishlarini belgilash, o‘sib kelayotgan yosh avlodni ma‘naviy-axloqiy va intellektual rivojlantirishni sifat jihatidan yangi darajaga ko‘tarish, o‘quv-tarbiya jarayoniga ta‘limning innovatsion shakllari va usullarini joriy etish maqsadida, shuningdek O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-sentabrda “Xalq ta‘limini boshqarish tizimini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-5538-son Farmoniga muvofiq:

• O‘zbekiston Respublikasining 2030-yilga kelib PISA (The Programme for International Student Assessment) Xalqaro miqyosda o‘quvchilarni baholash dasturi reytingi bo‘yicha jahonning birinchi 30 ta ilg‘or mamlakati qatoriga kirishiga erishish;

• uzluksiz ta‘lim tizimi mazmunini sifat jihatidan yangilash, shuningdek professional kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish;

• o‘qitish metodikasini takomillashtirish, ta‘lim-tarbiya jarayoniga individuallashtirish tamoyillarini bosqichma-bosqich tatbiq etish;

• xalq ta‘limi sohasiga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va innovatsion loyihalarni joriy etish;

• xalq ta‘limi muassasalarining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash va budjetdan mablag‘ bilan ta‘minlashning samaradorligini oshirish;

• yoshlarni tarbiyalash va ularning bandligini ta‘minlashda maktabdan tashqari ta‘limning zamonaviy usullari va yo‘nalishlarini joriy etish;

• davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish hisobiga davlat ta‘lim tizimida raqobat muhitini kengaytirish;

• yoshlar ta‘lim-tarbiyasi uchun qo‘shimcha sharoitlar yaratishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlarni o‘z ichiga olgan beshta tashabbusni amaliyotga tatbiq etish;

xalq ta‘limi tizimida faoliyat ko‘rsatishning jozibadorligini oshirish maqsadida umumiy o‘rta ta‘lim muassasalari xodimlarining mehnatiga haq to‘lash, moddiy rag‘batlantirish va ijtimoiy himoya qilish darajasini bosqichma-bosqich oshirib borish;

O‘zbekiston Respublikasining xalq ta‘limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini 2019-yilda amalga oshirish bo‘yicha “Yo‘l xarita”sini tasdiqlash.

“Yo‘l xarita”larining bajarilishi yuzasidan Xalq Ta‘limi Vazirligi doimiy monitoring yuritish va uning natijalarini har chorakda Vazirlar Mahkamasiga taqdim etib borish vazifalari yuklatildi. Farmon ijrosini tegishli mutasaddilar zimmasiga yuklatildi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi, O‘zbekiston Milliy axborot agentligi va O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi ommaviy axborot vositalarida ushbu Farmonning maqsad va



vazifalarini keng yoritish bo'yicha chiqishlar hamda mavzuga oid ko'rsatuvlar tashkil etishi belgilanib qo'yildi.

Bu kabi ta'lim tizimini takomillashtirishga qaratilgan Prezident farmonlaridan yana biri bu - O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi.

Konsepsiyada O'zbekiston Respublikasida oliy ta'limni tizimli isloh qilishning ustuvor yo'nalishlarini belgilash, zamonaviy bilim va yuksak ma'naviy-axloqiy fazilatlarga ega, mustaqil fikrlaydigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash jarayonini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish, oliy ta'limni modernizatsiya qilish, ilg'or ta'lim texnologiyalariga asoslangan holda ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirish maqsadida quyidagilar belgilandi:

oliy ta'lim sohasida davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish, hududlarda davlat va nodavlat oliy ta'lim muassasalari faoliyatini tashkil etish asosida oliy ta'lim bilan qamrov darajasini 50 foizdan oshirish, sohada sog'lom raqobat muhitini yaratish;

respublikadagi kamida 10 ta oliy ta'lim muassasasini xalqaro e'tirof etilgan tashkilotlar (Quacquarelli Symonds World University Rankings, Times Nigher Education yoki Academic Ranking of World Universities) reytingining birinchi 1000 ta o'rindagi oliy ta'lim muassasalari ro'yxatiga, shu jumladan O'zbekiston Milliy universiteti va Samarqand davlat universitetini birinchi 500 ta o'rindagi oliy ta'lim muassasalari ro'yxatiga kiritish;

oliy ta'lim muassasalarida o'quv jarayonini bosqichma-bosqich kredit-modul tizimiga o'tkazish;

xalqaro tajribalardan kelib chiqib, oliy ta'limning ilg'or standartlarini joriy etish, jumladan o'quv dasturlarida nazariy bilim olishga yo'naltirilgan ta'limdan amaliy ko'nikmalarni shakllantirishga yo'naltirilgan ta'lim tizimiga bosqichma-bosqich o'tish;

oliy ta'lim mazmunini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish, ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlarining barqaror rivojlanishiga munosib hissa qo'shadigan, mehnat bozorida o'z o'rnini topa oladigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash tizimini yo'lga qo'yish;

oliy ta'lim muassasalarining akademik mustaqilligini ta'minlash;

oliy ta'lim muassasalarida ta'lim, fan, innovatsiya va ilmiy-tadqiqotlar natijalarini tijoratlashtirish faoliyatining uzviy bog'liqligini nazarda tutuvchi "Universitet 3.0" konsepsiyasini bosqichma-bosqich joriy etish;

xorijiy investitsiyalarni keng jalb qilish, pullik xizmatlar ko'lamini kengaytirish va boshqa budjetdan tashqari mablag'lar hisobiga oliy ta'lim muassasalarida texnopark, forsayt, texnologiyalar transferi, startap, akselerator markazlarini tashkil etish hamda ularni tegishli tarmoq, soha va hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini tadqiq qiluvchi va prognozlashtiruvchi ilmiy-amaliy muassasalar darajasiga olib chiqish;

oliy ta'lim muassasalari professor-o'qituvchilari, ilmiy izlanuvchilari, doktorantlari, bakalavriat va magistratura talabalarining yuqori impakt-faktorga ega



nufuzli xalqaro ilmiy jurnallarda maqolalar chop etishi, maqolalarga iqtiboslik ko'rsatkichlari oshishi, shuningdek respublika ilmiy jurnallarini xalqaro ilmiy-texnik ma'lumotlar bazasiga bosqichma-bosqich kiritilishini ta'minlash;

O'zbekiston oliy ta'lim tizimini Markaziy Osiyoda xalqaro ta'lim dasturlarini amalga oshiruvchi “xab”ga aylantirish;

oliy ta'limning investitsiyaviy jozibadorligini oshirish, xorijiy ta'lim va ilm-fan texnologiyalarini jalb etish;

talaba-yoshlar ta'lim-tarbiyasi uchun qo'shimcha sharoitlar yaratishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlarni o'z ichiga olgan beshta tashabbusni amaliyotga tatbiq etish;

oliy ta'lim muassasalarining infratuzilmasi va moddiy-texnik bazasini, shu jumladan xalqaro moliya institutlarining imtiyozli mablag'larini keng jalb qilish hisobiga yaxshilash, ularni bosqichma-bosqich o'zini o'zi moliyalashtirish tizimiga o'tkazish va moliyaviy barqarorligini ta'minlash;

ta'limning ishlab chiqarish korxonalarini va ilmiy-tadqiqot institutlari bilan o'zaro manfaatli hamkorligini yo'lga qo'yish;

aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlari, shu jumladan imkoniyati cheklangan shaxslarning oliy ta'lim bilan qamrov darajasini oshirish, ular uchun infratuzilmaga oid sharoitlarni yaxshilash;

O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini 2019-yilda amalga oshirish bo'yicha “Yo'l xaritasi” 2-ilovaga muvofiq tasdiqlash;

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi hamda Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasining Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi huzuridagi Jamoatchilik kengashi hamda O'zbekiston oliy ta'lim muassasalari rektorlari kengashi negizida nodavlat notijorat tashkilot shaklidagi Respublika oliy ta'lim kengashini tashkil etish;

Kengashning asosiy vazifalari etib quyidagilar - professor-o'qituvchilar, talabalar o'rtasida so'rovlar o'tkazish, jamoatchilik va ish beruvchilarning fikrini o'rganish hamda ilg'or xorijiy tajribalarni tahlil qilish orqali oliy ta'lim sifatini oshirish, o'quv dasturlarini takomillashtirish va zamonaviy pedagogik texnologiyalarni joriy etish yuzasidan tavsiyalar ishlab chiqish;

oliy ta'limni davlat tomonidan boshqarish tizimi samaradorligiga va professor-o'qituvchilar uchun yaratilgan sharoitlar, ular tomonidan ta'lim berishda qo'llanilayotgan ta'lim-tarbiya usullarining ta'sirchanligiga xolisona baho berish;

ta'lim berishda yuqori sifatni ta'minlash yuzasidan ta'sirchan jamoatchilik nazoratini o'rnatish, bu borada ommaviy axborot vositalari va boshqa fuqarolik jamiyati institutlari bilan yaqindan hamkorlik qilish;



oliy ta'lim muassasalarida shaffoflik, xolislik va obyektivlikni ta'minlash, korrupsiyaga sharoit yaratuvchi omillarni bartaraf etishga qaratilgan kompleks choratadbirlarni ishlab chiqish va amalga oshirilishi bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqish;

oliy ta'lim tizimida kadrlar tayyorlash, qayta tayyorlash, malakasini oshirish va pedagoglarning ilmiy-innovatsion faoliyatini rivojlantirish bo'yicha ishlarni mazmunli va maqsadli tashkil etish yuzasidan taklif va tavsiyalar ishlab chiqish;

xalqaro aloqalar natijadorligini tahlil qilib borish, qo'shma dasturlar samaradorligini baholash, hamkorlikning yangi shakllarini rivojlantirish, chet ellik professor-o'qituvchilar va xorijdagi vatandoshlarni oliy ta'lim tizimiga jalb etish bo'yicha takliflar tayyorlash;

oliy ta'lim muassasalari faoliyati samaradorligini baholash va takomillashtirish bo'yicha ilg'or xorijiy tajribalarni o'rganish asosida ularni respublika oliy ta'lim muassasalari sharoitida qo'llash bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqish belgilab qo'yildi.

Oliy ta'lim muassasasi rahbar xodimlari tomonidan xorijiy mamlakatga xizmat safari oldidan asosiy ma'lumotlar, jumladan mamlakat nomi, tashrif maqsadi va rejasi, safar natijalari yuzasidan esa oliy ta'lim muassasasi kengashiga amalga oshirilgan ishlar va xarajatlar to'g'risida taqdim etilgan hisobot oliy ta'lim muassasasi veb-saytiga joylashtiriladi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi "Yo'l xaritalari"ning bajarilishi yuzasidan doimiy monitoring yuritsin va uning natijalarini har chorakda Vazirlar Mahkamasiga taqdim etib borishi belgilandi.

O'zbekiston Respublikasi oliy va o'rta maxsus ta'lim vaziriga — Konsepsiyaning maqsadli ko'rsatkichlariga erishish yuzasidan shaxsiy javobgarlik yuklandi.

Bugungi kunda ta'lim tizimini takomillashtirishga yuksak darajada e'tibor qaratilmoqda.

Mamlakatimiz maktablarida xalq ta'lim vazirligi tomonidan maktab ta'limini raqamlashtirish, maktab ta'limiga axborot kommunikatsion texnologiyalrni integratsiya qilish, o'qituvchi, o'quvchi va ota-onalarning interaktiv muloqatlarini rivojlantirish, masofaviy va mustaqil ta'lim olish uchun imkoniyatlarni amalga oshirish maqsadida kundalik.com raqamli ta'lim platformasini ishlab chiqildi va amalda tadbiq etilmoqda. Bu platformada o'qituvchilar uchun dars jadvallari lektron jurnal, uy vazifalarni boshqarish va turli hisobotlarni avtomatik ravishda amalga oshiriladi, ota-onalar uchun o'quvchining kundaligi, uy vazifalari va uloqotlar uchun bo'limlari orqali o'z farzandlarini to'liq nazoratga oladi, o'quvchilar uchun kundalik daftari, portfolio, muloqot bo'limlari orqali kelasi dars mavzulari biladi, o'qituvchilari bilan o'zaro muloqotlarini amalga oshiradi, davlat organlari uchun umumiy statistic ma'lumotlarni to'plash, yangiliklarni quyi tizimlarga yetkazishda aloqa va xabardor bo'lish uchun ishlarini amalga oshiradi. Oliy ta'lim tizimida raqamli universitet loyihasi davom etmoqda. Hozirgi kunda ta'lim jarayoniga oliy ta'lim muassasalaridan olinadigan turli hisobot va ma'lumotlar sonini keskin kamaytirish, ularni



tayyorlashning qog'oz shaklidan voz kechish, boshqaruv tizimini raqamlashtirish maqsadida Raqamli universitet loyihasi doirasida “Oliy ta'lim jarayonlarini boshqarish axborot tizimi” (HEMIS - Higher Education Management Information Systems) ishlab chiqildi. Ushbu axborot tizimi «Ma'muriy boshqaruv», «O'quv jarayoni», «Ilmiy faoliyat» va «Moliyaviy boshqaruv va statistika» axborot tizimlarini o'z ichiga oladi. Oliy ta'lim jarayonlarini boshqarish axborot tizimini joriy etishdan maqsad: - OTM faoliyatining ochiqligi va shaffofligini ta'minlash; - oliy ta'lim tizimida o'quv, ilmiy, ma'muriy va moliyaviy jarayonlarni avtomatlashtirish; - oliy ta'lim tizimida byurokratik to'siqlar yuzaga kelishini oldini olish va moliyaviy xarajatlarni qisqartirish; - OTM, talaba, va ish beruvchi tashkilotlar o'rtasida uzviylikni ta'minlash; - boshqaruv jarayonlari uchun sarf qilinadigan vaqtni qisqartirish va mehnat samaradorligini oshirish;

- ta'lim jarayoni ishtirokchilari faoliyati samaradorligini monitoring qilish;

- tahliliy ma'lumotlarni shakllantirish va qaror qabul qilish jarayonini optimallashtirish va tezlashtirish.

Oliy ta'lim muassasalarida raqamlashtirish va raqamli texnologiyalar vositasi yordamida ta'limni tashkil etish talabalarining dars mashg'ulotlarga faol qatnashishi, mavzularni to'liq o'zlashtirishi, kelajakdagi kasbiga mehrining oshishi va turli kompetensiyalarini rivojlaniga sabab bo'ladi. Bugungi kunda raqamli ta'lim ta'lim tizimlarimizda o'rni beqiyos bo'lib, bunda o'quvchilar va talabalarimizning fanni o'zlashtira olishi emas, balki ular bir vaqtning o'zida qanday o'qiyotganini, fanni qanday o'rganayotganini, vazifalarga qiziqishi, o'z darajasidagi muammolarga fikr bildirishlarini kuzatish mumkin. Buning natijasida o'quvchilarning o'zlari mustaqil o'rganishi, shaxsiy o'rganishga moslashishi va o'zini ustida ishlashi kabi qobiliyatlari rivojlanadi. Dars jarayonlari raqamli kontekstda jonli olib borish va darslarda interfaol topshiriqlarni berish, virtual loyatoriyalarda o'rganish talabalarini yanada fikrlashlarini o'stiradi. O'zi qiziqqan sohadagi kasbiy kompetensiyalari rivojlanadi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktyabdagi PF 6079 sonli “Raqamli O'zbekiston 2030” strategiyasi.

2. O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi.

3. O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi.

4. Akramjon O'Ktamjonovich Mirzayev. Maqola. Mamalakatimiz Ta'lim Tizimida raqamlashtirish va raqamli dunyoda o'qitish va o'rganishning mavjud imkoniyatlari.